



BANK MAHSULOTLARI VA ULARNI MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya bozori va sug'urta ishi" kafedrasini mudiri, i.f.d. professor
z.mamadiyarov@tsue.uz

Karimov Shermurod Tuymurodovich

"O'zbekiston sanoat-qurilish banki" ATB, Bank mahsulotlari samaradorligini aniqlash bo'limi boshlig'i
sh.karimov@sqb.uz

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 8 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a7	Jahon amaliyotiga ko'ra, tijorat banklarida bank va mijozlari jismoniy aloqasiz, bank binosiga bormasdan pul mablag'larini boshqarishi, ko'p sonli mijozlariga navbatsiz xizmat ko'rsatish, vaqt va xarajatlarni tejash imkoniyatlari bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish, raqamli yordamchilar, raqamli banklar, biometrik texnologiyalar, mobil ilovalar, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy moliyaviy texnologiyalar asosida bank xizmatlari va mahsulotlarini raqamlashtirish orqali bank tizimidagi muammoli holatlar uchun qulay moliyaviy yechimlar ishlab chiqish kabi tadqiqot yo'nalishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Mazkur maqolada ham bank mahsulotlari va ularni moliyaviy texnologiyalar asosida raqamlashtirish istiqbollari tadqiq etilib, uning o'zgarishiga xos tendensiyalar va mavjud muammolar o'rganilgan hamda rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.
KEYWORDS	bank mahsulotlari, bank xizmatlari bozori, chakana xizmatlar, korporativ xizmatlar, onlayn xizmatlar, to'lov operatorlari, banklararo raqobat, raqamli bank.

Kirish (Introduction/Введение).

Bugungi kunda bank tizimida transformatsiyalash, tijorat banklarini bosqichma-bosqich xususiyashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida yo'lga qo'yish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish va bank tizimida davlat ulushini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilib, banklar davlat ishtiroki saqlab qolinadigan hamda xususiyashtiriladigan banklarga ajratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini rivojlantirish uchun 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko'lami transformatsiya dasturini amalga oshirish, bu borada banklarning kapital, resurs ba'zasi va daromadlarini oshirishga alohida e'tibor berish, axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta'minotini tubdan yangilash, hamda soha uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash kabi keskin choralar ko'rish vazifasi belgilangan. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'birilari bilan aytganda, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda [1].

Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilgan o'zgartirishlar Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazildi [2]. O'zgartirishlarga muvofiq, endi O'zbekistonda raqamli bank faoliyatini ham amalga oshirish mumkin bo'ladi. "Anor Bank" mamlakatdagi birinchi raqamli bank sifatida tarixga kirdi [3]. Bundan tashqari «Bank Apelsin» (hozirgi kunda, Uzun bank), TBC bank[4]lar ham O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan raqamli bank hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bank mahsulotlarini raqamlashtirishga Fintech va raqamli bank platformalari kabi moliyaviy texnologiyalar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu transformatsiya mijozlar tajribasini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish zarurati bilan bog'liq [5]. Moliyaviy sektorda raqamli texnologiyalardan foydalanish tezlashmoqda, bunda asosiy e'tibor ochiq bank, API platformalari va blokcheyn texnologiyasiga qaratiladi [6]. Xitoy va AQSh kabi mamlakatlarda Fintech bank sektorini qayta shakllantirish, moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirish va bozor o'sishini rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [7]. Raqamli bankingga o'tish aholiga ilg'or moliyaviy yechimlarni taqdim etishga qaratilgan yangi xizmatlar va jarayonlarni ishlab chiqishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga integratsiyalashuvi rivojlanayotgan mijozlar ehtiyojlari va tartibga soluvchi talablarni qondirish, pirovardida sanoatni yanada samaraliroq va mijozlarga yo'naltirilgan kelajakka olib borish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bank mahsulotlarini raqamlashtirish moliyaviy texnologiyalar, raqamli to'lovlar va mijozlarga yo'naltirilgan innovatsiyalar kabi xizmatlarni yaxshilash, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilashga olib keladi [8].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur maqolada bank mahsulotlari xususan, bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish, raqamli yordamchilar, raqamli banklar, biometrik texnologiyalar, mobil ilovalar, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy moliyaviy texnologiyalar asosida bank xizmatlari va mahsulotlarini raqamlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy, tarixiy va amaliy manbalarni

qiyosiy tahlilida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlash va segmentli tahlil usullaridan foydalanilgan.


Tahlillar (Analysis/Анализ).

Bank mijozlari onlayn hisobraqamlar ochish va yuritishni xohlashmoqda. Aksariyat bank mijozlari ofislarga borish va navbatda turishni xohlashlarini ko'rsatadigan tadqiqotlarga ishonmaslik kerak. Darhaqiqat, mijozlar ofisga borishlari kerak, chunki ularga alternativa yo'q. Agar bir necha telefon tugmalarini bosish orqali hisobraqam ochish imkonini beradigan yaxshi bank ilovalari paydo bo'lsa, ular bundan, albatta, foydalanadilar. Banklar tomonidan doimo yangi mijozlarni jalb qilish tizimi ishlab turadi. Agar bank yangi mijozlarni jalb qilishda manzilli, ommaviy, mobil va onlayn reklama vositalaridan foydalansa, bu o'z samarasini beradi.

Iste'molchilar alohida e'tiborni xohlashadi. Agar mijozga o'zi borib turadigan qahvaxona, aviakompaniya yoki mehmonxonada alohida e'tibor qaratilsa, u o'z jam'armalarini saqlaydigan bankda ham shu e'tiborni kutishga haqli hisoblanadi. Moliyaviy xizmat ko'rsatmaydigan tashkilotlar banklarga qaraganda o'z mijozlariga ko'proq e'tibor qaratishadi. Oddiylik har doim g'alaba qozonadi. Raqamli banklar rivojlanayotgan yangi davrda mijozlarga bank mahsulotlari va xizmatlarining eng oddiy usullarini taklif qila oladigan tashkilotlar g'olib chiqadi. Eng ommalashgan dasturlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning barchasi bir necha tugmalarni bosish orqali natijalarga erishish imkonini beradi. Bular, masalan, Uber, Amazon, Google, PayPal kabilardir. Bank ilovalari ham shular kabi sodda va tushunarli bo'lishi kerak.

Raqamlashtirish muayyan jarayonlarning samaradorligini oshirish uchun texnologiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uchinchi tomonlar bilan hamkorlik qilish orqali ichki imkoniyatlarni rivojlantirishdir. Bugungi kunda ko'p qirrali foyda keltiradigan raqamli transformatsiya bank sanoatida birinchi o'rinda turibdi. Xususan, COVID-19 pandemiyasi sababli bank sektori moliyaviy mahsulotlar, masofaviy va raqamli xizmatlarni yaxshilash, bank xizmatlarini tezlashtirishga va banklarning tegishli xarajatlarini kamaytirishni xizmat qiladi.

Moliyaviy texnologiyalarning moliyaviy sektorda sun'iy intellekt, «big data», bulutli hisoblashlar, blokcheyn va boshqa texnologiyalar kabi yangi texnologiyalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishi katta inqilob qilmoqda. «International Settlements» bankining Xalqaro hisob-kitoblarni bankining Moliyaviy barqarorlik kengashi fintexni «moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga tegishli moddiy ta'sir ko'rsatadigan yangi biznes modellari, ilovalar yoki mahsulotlar yaratuvchi innovatsiyalarga asoslangan texnologiya» deb ta'riflaydi [9]. Fintex innovatsiyalari an'anaviy banklarning ko'plab an'anaviy xizmatlarini o'zgartirishda, jumladan moliyalashtirish, aktivlarni boshqarish, to'lov xizmatlari va boshqalarda katta ahamiyatga ega bo'ldi [10]. Fintex startaplari nafaqat moliyaviy xizmatlarga arzonroq, tezroq va osonroq kirishni ta'minlash orqali an'anaviy moliya institutlariga qarshi kurash olib boradi, balki amaldagi institutlarni transformatsiya qilishni va innovatsion faoliyatini potentsial ravishda qo'llab-quvvatlaydi [11]. Biroq, hozirda fintex startaplari an'anaviy moliya sektoriga qanday ta'sir qilishi haqida kam tadqiqotlar olib borilgan.



1-rasm. Moliyaviy texnologiyalar¹

Biometrik texnologiyalar. Raqamli iqtisodiyot asrida moliyaviy xizmatlari sanoati kiber-avtomatlarga nisbatan zaiflashgan. Shuning

uchun «FinTech» sanoati uchun xavfsizlik birinchi o'rinda turadi. Firingarliklarning oldini olishning yo'llaridan biri biometrik texnologiyalarni qo'llashdir. Biroq biometrik autentifikatsiya qilishning yagona afzalligi xavfsizlik emas. Ushbu texnologiya orqali ilovaga kirishni osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Blokcheyn texnologiyasi. Moliyaviy xizmatlar sektori blokcheynni birinchilardan bo'lib kashf etdi. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanishda tizimning shaffofligi tufayli ko'plab «FinTech startup»lar qilinmoqda. Blokcheynning yana bir afzalligi, moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirilgan aqlli shartnomadir. Shuning uchun moliyaviy institutlar ushbu texnologiyaga katta e'tibor qaratilishi kutilmoqda.

Blokcheyn (blokklar zanjiri) – taqsimlangan ma'lumotlar to'plami bo'lib, unda ma'lumotlar saqlash qurilmalari umumiy serverga ulanmagan bo'ladi. Bu ma'lumotlar to'plami blokklar deb ataladigan va tartibga solingan qaydlar doimiy o'sib boradigan ro'yxatda saqlanadi. Har bir blok vaqt belgisiga va bundan oldingi blokka havolaga ega bo'ladi. Shifrlashni qo'llash shuni kafolatlaydiki, foydalanuvchilarning ularsiz faylga yozuv kiritish imkonini bo'lmaydi, yopiq kalitlar mavjudligi esa blokklar zanjirlarining ma'lum bir qismining o'zgartirishi mumkin [12].

Sun'iy intellekt. Aksariyat ekspertlar sun'iy intellektni yaqin kelajakda «FinTech»ga katta ta'sir o'tkazishini ta'kidlaymoqda. «FinTech» sanoati sun'iy intellektidan foydalanishga bir qator sabablar mavjud. Avvalo sun'iy intellekt ma'lumotlarni tahlil qilish kabi vazifalarni avtomatlashtirgan, bu esa ancha vaqtni tejashga yordam beradi. Bundan tashqari texnologiya «chatbots» va maslahatchi robotlarni yaratish uchun, mijozlarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali firingarliklarni aniqlashda ham ishlatiladi. Bank xodimlari uchun ovozi yordamchilar ishlab chiqarilmoqda. «OCBC Bank» yaqinda Singapurda «Google» bilan hamkorlikda birinchi sun'iy intellekt yordamida ovozi bankni ishga tushurdi. Bu mijozlarga kreditlari miqdorini hisoblash, mablag'larini boshqarish, bank yangiliklaridan xabardor bo'lish, bankning yaqin filiallari va bankomatlari to'g'risida ma'lumot olish kabi bank xizmatlarini suhbatlashish orqali amalga oshirishga yordam beradi.

Raqamli kreditlash - bu moliyaviy institutlarga tezroq xizmat ko'rsatish bilan birga unumdorlikni oshirish va kredit foydasini oshirish imkonini beruvchi texnologiya. Bu potentsial qarz oluvchilarga butun dunyo bo'ylab istalgan joydan internetga ulangan har qanday qurilmadan kredit mahsulotlariga murojaat qilish imkonini beradi.

Biroq, texnologiyalar rivojlanishi va iste'molchilar talablari rivojlanishi bilan raqamli kreditlash tushunchasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mijozlar banklarda arizalarini ko'rib chiqilishini va qarorlar qabul qilishlarini kutishadi. Hozirda qog'ozsiz xizmat ko'rsatish odatiy holga aylangan va banklar mijozlarga tezlashish uchun odatdagidan tashqari raqamli kreditlash amaliyotlarini taqdim yetishlari kerak. Raqamli kreditlash quyidagi afzalliklarga ega:

1. Ariza topshirish jarayonini soddalashtirish. Mijozlar ma'lumotlarini bitta platformada yig'ish va raqamlashtirish jarayon shaffofligining yaxshilanishi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Bank raqamli bank platformasidan foydalanganda, mijoz arizani to'ldirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etganda, butun moliyaviy paket avtomatik ravishda yangilanadi.

2. Kredit ma'lumotlarini raqamlashtirish. Axborot oqimi va unga kirishni raqamlashtirish butun kreditlash jarayoniga katta foyda keltiradi. Bu shaffoflikni yaxshilaydi va ma'lumotlarni tahlil qilish bilan bog'liq qiyinchiliklarni kamaytiradi.

3. Tahlil uchun kreditlash ma'lumotlaridan foydalanish. Kreditlar va tahlilchilar ko'pincha turli baholar va baholash usullaridan foydalanishadi. Ushbu nomuvofiqliklar ko'pincha noto'g'ri hisob-kitoblarga olib keladi, bu esa noto'g'ri kredit qarorlari va noto'g'ri hisobotlarga olib keladi.

Biroq, raqamli bank platformasiga integratsiyalangan raqamli kreditlash tizimi har bir kredit mahsulotini tez va aniq tahlil qilishi, tasdiqlashi va narxini belgilashi mumkin. Shu bilan birga, kreditlash bilan bog'liq barcha ma'lumotlarning bir joyga to'planishi natijasida, banklar portfel riskini baholash va strategik qarorlar qabul qilishda aniqlik oshadi [14].

4. Mobil kreditlash xususiyatlari va hujjatlarni elektron imzolashni taklif qilish. Muayyan mijozlar, xususan, mobil telefonlar orqali qarz olishni afzal ko'radilar, chunki ular kundalik vazifalarining ko'p qismini telefonlaridan bajarishga odatlangan va kredit olish jarayonlari ham bundan mustasno emas. Ular tegishli hujjatlarni to'plash, rasmiylashtirish

va imzolash uchun jismoniy filiallarga tashrif buyurish bilan bog'liq qiyinchiliklarni xohlamaydilar.

5. Kam ta'minlangan yoki kredit olmagan mijozlar uchun kredit variantlarini taqdim etish. Moliyaviy institutlar an'anaviy kreditlash amaliyotida asosan kredit ballariga tayanadi. Kredit ballari kreditorlarga bo'lajak mijozning oldingi qarz olish xatti-harakatlarini chuqur o'rganishni taklif qiladi.

Boshqa tomondan, raqamli kreditlash qisqa muddatli kreditlar uchun qattiq tekshiruvlardan voz kechishdi. Ular kredit ballariga yoki hech qanday moliyaviy ma'lumotlarga tayanmaydilar, bu esa birinchi marta kredit oluvchilarga qulay sanaladi.

RegTech raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali tartibga solish majburiyatlarini bajarish uchun tejankor yechim taklif qiladi. Regulyatorlar uchun ma'lumotlarga kirish bozordagi o'zgarishlarni samarali monitoringini osonlashtiradi.

Moliyaviy xizmat ko'rsatish sektori uzoq vaqtdan beri takomillashib bormoqda va ularni tartibga solib borish uchun qoidalar ham takomillashtirilmoqda. Butun dunyoda moliya sektoridagi tartibga soluvchi o'zgarishlar hayratlanarli darajada oshib bormoqda. Yangi me'yoriy o'zgarishlarning ko'pligi sababli moliya institutlarida yuqori murakkablikni keltirib chiqarmoqda. Regulatory Technology (RegTech) buni bartaraf etish uchun FinTech ekotizimida xuquqiy mustahkam poydevor yaratdi va moliyaviy institutlar duch keladigan yangi va murakkab qoidalar, sud jarayonlari va tartibga soluvchi tuzatish sohalariga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqdi.

Banklar tomonidan qo'llaniladigan hozirgi eski yechimlar butun dunyo bo'ylab tartibga soluvchilar tomonidan tobora ko'proq amalga oshirilayotgan qat'iy talablarga javob bermayapti. RegTech mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish, firibgarlarni aniqlash, yangi qoidalar tezroq moslashish, ma'lumotlar yig'ish va ma'lumotlar tahlilini yaxshilash hamda boshqa ustuliklarga ega.

Kriptovalyuta dunyosi tobora kengayib borayotgan va mashhurlikka erishayotgan bo'lsa-da, an'anaviy banklar ushbu raqamli aktivlardan foydalanishga ikkilanishadi - ularning o'ziga xos riski potentsial foydadan ustun turadi, deb hisoblaydilar. Biroq, Valyuta nazorati idorasi (OCC) kabi tartibga soluvchi idoralar banklarning raqamli valyutalar haqidagi tasavvurlarini o'zgartirish ustida ishlamoqda, chunki bu aktivlar moliya institutlarini innovatsiyalar va samaradorlikning yangi davriga ijobiy ta'sir qilishi mumkinligiga ishonadi.

Banklar kriptovalyutadan ehtiyot bo'lishlari mumkin, chunki bu aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar katta xavf tug'diradi va uzoq va qimmat tekshiruvni talab qiladi. Ammo raqamli valyutalar moliyaviy institutlar va ularning mijozlari uchun juda ko'p foyda keltirishi mumkin.

Shu boisdan, kriptovalyutalarni tartibga solish tizimini erkinlashtirish, kriptoxavfsizlikni ta'minlagan holda kripto aktivlardan foydalanish doirasini belgilash va uni kengaytirib borish yaqin istiqbolda nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlarda yuz beradigan tendensiyaga aylanishi mumkin [13].

Maslahatchi robotlar - raqamli boylikni boshqarish platformalari bo'lib, ular avtomatlashtirilgan moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish uchun hech qanday inson omilisiz algoritmlardan foydalangan holda xizmat ko'rsatadi. Robot-maslahatchilar birinchi marta 2008 yildagi moliyaviy inqirozga javoban paydo bo'lgan. Ammo bozor tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va Fintech kompaniyalari va Fintech startaplari uchun mustaqil ravishda sarmoya kiritishni talab etmoqda.

Butun dunyo bo'ylab robot-maslahatchilar tomonidan boshqariladigan aktivlar 2020-yilda 987494 million dollarni 2024-yilga kelib 2487280 million dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda. Xuddi shu davrda foydalanuvchilar soni qariyb ikki baravar, 2020-yildagi 224,5 milliondan 2024-yilda 436,3 millionga ko'payishi kutilmoqda.

Maslahatchi robotlarning roli ko'proq bozorning ilgari etarli darajada xizmat ko'rsatilmagan segmentiga xizmatlar ko'rsatish va inson omilini kamaytirishdan iborat.

Xususan, ilgari investorlar o'z portfelini boshqarish uchun maslahatchi uchun boshqaruv ostidagi jami aktivlarining kamida 1 foizini to'lagan bo'lardi, ammo endi robot-maslahatchi ham xuddi shunday ishni hech qanday to'lovsiz yoki yiliga 0,25 foizga amalga oshirishi mumkin.

Banklar, shuningdek, inson maslahatchilarining samaradorligini oshirish uchun robot-maslahatchilardan foydalanishlari mumkin. Muntazam ma'muriy yoki monitoring vazifalarini avtomatlashtirish uchun sun'iy intellektidan foydalanish maslahatchilarning yukini yengillashtirishi va ularning vaqtini tejash imkonini beradi.

Pul o'tkazmalari. Bank hisobvaraqlaridan pul o'tkazishning ko'plab usullari mavjud. Taraqqiy etib borayotgan bank texnologiya bilan onlayn pul o'tkazmalari hech qanday qiyinchiliksiz bir bankdan boshqasiga pul o'tkazishning eng oson usuliga aylandi. Pul o'tkazishning quyida uchta asosiy usuli keltirilgan:

National Electronic Fund Transfer (NEFT) Milliy elektron fond o'tkazmasi bu banklararo pul o'tkazishning eng oddiy va eng samaradi shaklidir. Har qanday NEFT tranzaksiyasini amalga oshirish uchun foydalanuvchiga ikkita muhim ma'lumot kerak bo'ladi. Birinchidan, hisobraqami va ikkinchidan, maqsadli hisobning IFSC (The Indian Financial System Code) kodi.

Real Time Gross Settlement (RTGS). Real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob yoki RTGS deyarli NEFTga o'xshaydi, ammo minimal to'lovda va uning maqsadli hisobni yuritishda farq qiladi. Agar foydalanuvchi 2 martadan ortiq o'tkazma o'tkazmoqchi bo'lsa, undan foydalanish o'rinni. Pul miqdorning yuqori chegarasi yo'q. RTGS pul o'tkazmasi real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Pul o'tkazilayotgan shaxsning banki uning hisobraqamiga pul o'tkazish uchun 30 daqiqa vaqt sarflaydi.

Immediate Payment Service (IMPS). Darhol to'lov xizmati yoki IMPS bir zumda pul o'tkazish xizmati va undan istalgan vaqtda foydalanish mumkin. IMPS oddiygina NEFT+ RTGS sifatida baholash mumkin. Firibgarlik shikoyatlarining oldini olish uchun tranzaksiya chegarasi juda past darajada o'rnatilgan. IMPS o'tkazish uchun foydalanuvchi faqat maqsadli hisob egasining IMPS identifikatori va uning mobil raqamini (Mobile Money Identifier) bilishi kerak [15].

Xususan, banklarning hududlardagi filiallarini bank xizmatlari markazlariga aylantirish va bek ofis ishlarining katta qismini hududiy boshqarmalardan yoki bosh ofisda markazlashtirish lozim. Natijada, bankning xarajatlari tejalishi va xizmatlar sotuvi kengayishiga erishiladi.

Banklarni raqamli transformatsiya qilishda bankning moliyaviy xizmatlari jozibadorligi va daromadligini oshirish, jozibador raqamli bank mahsulot turlarini ko'paytirish hamda yangi mijozlarni jalb etish uchun bank tarifiini maqbullashtirish lozim. Natijada, banklar raqobatbardoshligini oshiradi, banklarda bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish tizimlarining diversifikatsiyalashuv darajasi oshadi.

Agar banklar yangi mijozlar jalb qilish va o'z mijozlarini saqlab qolishni istasalar, ular raqamli tajribani qo'llash natijasida xizmatlar jozibadorligini oshirish lozim, bu esa oxir-oqibatda mijozlarni jalb etish va saqlab qolishga erishish mumkin [16].

Bunda, bankning biznes jarayonlarini optimallashtirishga katta e'tibor qaratish talab etiladi. Biznes jarayonlarni optimallashtirish orqali bankning operatsion xarajatlarini kamaytirishga va daromadlarni oshirishga erishiladi. Bundan tashqari, bank xizmatlar spektrini kengaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish tijorat kreditlar salmog'ini ko'paytirish orqali bank operatsion daromadlarini oshirishga erishish mo'ljallangan bo'lib, bu o'z navbatida operatsion samaradorlik ko'rsatkichini o'stirmaslik imkonini beradi.[17]

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Xulosa qilib aytganda, bank mahsulotlarining kelajagi ularni moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi hisobiga raqamlashtirishdadir. Iste'molchilarning xohish-istaklari uzluksiz raqamli tajribaga o'tayotganligi sababli, banklar o'z mahsulotlarini rivojlanayotgan talablarni qondirish uchun moslashtirishda muammolarga duch kelishlari mumkin.

Bank mahsulotlarini raqamlashtirish mijozlar tajribasini oshirish, operatsion samaradorlik va daromad olish uchun bir qancha istiqbollarni taqdim etadi. Mobil bank ilovalari, raqamli hamyonlar va robot-maslahatchilar kabi innovatsion fintech yechimlarini qabul qilish orqali banklar o'z mijozlariga qulay, moslashtirilgan va foydalanish mumkin bo'lgan xizmatlarni taqdim etishi va shu orqali qoniqish va sodiqlikni oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, raqamlashtirilgan bank mahsulotlari jarayonlarni yanada avtomatlashtirish va soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish va moliya institutlari faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalardan foydalangan holda banklar xatarlarni boshqarish, kredit anderrayting va firibgarlikni aniqlash jarayonlarini optimallashtirishi mumkin, bu esa qaror qabul qilish va resurslarni taqsimlashni yaxshilashga olib keladi.

Xususan, bank mahsulotlarini raqamlashtirish pullik xizmatlar, o'zaro savdo imkoniyatlari va fintech startaplari bilan hamkorlik kabi daromad olish uchun yangi yo'llarni ochadi. Mahsulot portfelini

diversifikatsiya qilish va innovatsion biznes modellarini o'zlashtirish orqali banklar raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotgan tendensiyalaridan foydalanishlari va qiymat yaratishning yangi manbalarini ochishlari mumkin.

Biroq, bank mahsulotlarini muvaffaqiyatli raqamlashtirish turli omillarni, jumladan kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi, me'yoriy hujjatlarga muvofiqlik va raqamli savodxonlikni sinchiklab ko'rib chiqishni talab qiladi. Banklar mijozlar ma'lumotlarini himoya qilish va kibertahdidlarni yumshatish uchun kuchli kiberxavfsizlik choralariga sarmoya kiritishi, shu bilan birga moliyaviy texnologiyalardan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy talablarga rioya etilishini ta'minlashi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank mahsulotlarini raqamlashtirish bank-moliya tizimini o'zgartirish uchun ulkan salohiyatni taqdim etsa-da, u imkoniyatlar va muammolarni hal qiluvchi strategik va yaxlit yondashuvni talab qiladi. Innovatsiyalarni, hamkorlikni va doimiy takomillashtirishni qamrab olgan holda, banklar o'z mijozlari, manfaatdor tomonlar va umuman jamiyat uchun qiymat yaratish, raqamli asrda bank ishi kelajagini shakllantirish uchun moliyaviy texnologiyalarning kuchidan foydalanishlari mumkin. Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda butun jahonda tijorat banklarining mijozlariga bank xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy bank texnologiyalari, fan va texnologiya yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda.

References:

1. <https://xs.uz/uzkr/post/tizhorat-banklarining-masofavij-bank-khizmatlarini-rivozhlantirish-davr-talabi>
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/08/02/raqamli-bank/>
3. <https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-ilk-rak-amli-bank-ruykhadan-utkazildi-24934>
4. <https://daryo.uz/k/2022/08/15/tbc-bank-o%25ca%25bbzbekistonda-raqamli-texnologiyalarga-o%25ca%25bbtish-davri/>
5. Jack, Hutchings. (2022). Digitalization, Emerging Technologies, and Financial Stability: Challenges and Opportunities for the Banking Industry. doi: 10.32388/csttyq
6. Natalia, I., Bykanova. (2022). Trends in the banking industry in the era of digital technology development. Научный результат. Серия Экономические исследования, doi: 10.18413/2409-1634-2022-8-2-0-11
7. Peifang, Wang. (2023). Digital transformation of financial institutions. doi: 10.4324/9781003310082-6
8. E.S., Pryazhentseva., Maria, Chernysheva. (2023). New Banking Products in the Sphere of Digitalization and Artificial Intelligence. Informaciã i innovacii, doi: 10.31432/1994-2443-2022-17-4-56-64
9. Olha, V., Popelo., Nataliia, Kholiavko., Artem, V., Tarasenko. (2022). Global Trends in the Digitalization of the Financial Services Market. Business Inform, doi: 10.32983/2222-4459-2022-4-58-64
10. Dorfleitner, G., Hornuf, L., Schmitt, M., Weber, M., 2017. FinTech in Germany. Springer, Cham. Dunne, T., Roberts, M.J., Samuelson, L., 1989. The growth and failure of US manufacturing plants. Quarterly Journal of Economics, 104 (4), 671-698.
11. Di, L., Yuan, G.X., Zeng, T., 2021. The consensus equilibria of mining gap games related to the stability of Blockchain ecosystems. European Journal of Finance, 27 (4/5), 419-440.
12. S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullaev, G.R.Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2019, 447 bet.
13. Xoshimov E.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kriptovalyutalarni tartibgasolish masalalari. Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. III son. may - iyun, 2020
14. Mamadiyarov, Z., & Karimov, K. (2024). Tijorat banklarida kredit riski va uni boshqarish usullari. Страховой рынок Узбекистана, 1(6), 57–60. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/105>
15. <https://www.indiatoday.in/information/story/different-types-of-money-transfer-neft-rtgs-imps-and-more-1464289-2019-02-25>
16. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich, & Asqarov Sarvar Anvar o'g'li (2023). Raqamli transformatsiya jarayonida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasi. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (2), 120-135.
17. Baratova, D., & Olmosova, M. (2023). Sug'urtalovchilarning investitsion faoliyatini baholashda xitoy tajribasi. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 35–38. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/67>

..